

2019 yil yanvar-dekabr oylarida

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **9092,4 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **114,0 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **5722,4 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **110,8 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **62,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **73,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 9092,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 114,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi - 15,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -11,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8571,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,3 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish.

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
Paxta linti, ming tonna	3,5	3,9	89,7
Aroq – ming litr 100 % spirt	456,0	1042,0	43,8
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	29,2	124	23,5
Vino, ming litr	1308,0	1526,0	85,7
Un, ming tonna	112,2	114,4	98,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	13,9	12,6	110,3



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi.


Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Ishlab chiqaradigan sanoat	8571,8	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1851,1	21,6
Ichimliklar ishlab chiqarish	378,2	4,4
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	3035,9	35,4
Kiyim ishlab chiqarish	1107,0	12,9
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	205,7	2,4
Yog`och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	30,9	0,4
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	69,7	0,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	3,0	0,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	9,8	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	120,2	1,4
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	244,2	2,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	122,0	1,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	391,5	4,6
Metallurgiya sanoati	62,1	0,7
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	267,4	3,1
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	3,7	0,0
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	277,8	3,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	64,0	0,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	8,1	0,1
Boshqa transport uchkunali ishlab chiqarish	0,8	0,0
Mebel ishlab chiqarish	137,4	1,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	171,1	2,1
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	10,2	0,1

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi.

o'rta-yuqori
texnologiyali




2018 yil
yanvar-dekabr



o'rta-quyi
texnologiyali



2019 yil
yanvar-dekabr



yuqori texnologiyali



quyi texnologiyali



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ning ulushi - 2,9 % ni (2018 yil yanvar-dekabr oylarida -3,4 %) , o'rta-yuqori texnologiyali - 5,5 % (6,0 %), o'rta-quyi texnologiyali - 10,1 % (11,5 %) va quyi texnologiyali - 81,5 % (79,1 %) ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 392,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,3 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 5722,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 110,8 % ga o'sgan, jami sanoatdagi ulushi esa 62,9 % ni tashkil etdi.




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari.



2018 yilning yanvar-dekabr oyida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 30,5 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-dekabr oyida 34,6 % ga yetgan.

**Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
hajmining tarkibi, % da.**



2018 yilning yanvar-dekabr oyida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 69,5 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-dekabr oyida 65,4 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatildi.



Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati.


	Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish, % da
Viloyat jami	5722,4	100,0	110,8
Namangan shahar	2687,7	47,0	108,3
Mingbuloq	47,5	0,80	105,1
Kosonsoy	245,3	4,3	113,3
Namangan t	626,3	10,9	112,8
Norin	116,3	2,0	113,9
Pop	138,3	2,4	102,9
To'raqo'rg'on	481,2	8,4	113,8
Uychi	379,1	6,6	112,6
Uchqo'rg'on	520,4	9,1	111,0
Chortoq	110,2	1,9	113,2
Chust	284,9	5,0	127,8
Yangiqo'rg'on	85,2	1,5	106,8

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2663,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 29,3 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, % da.



Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da.






Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-dekabr, mlrd.so'm	2018 yil yanvar-dekabr nisbatan, %
Viloyat jami	9092,4	114,0
Namangan shahar	3875,1	109,7
Mingbuloq	123,9	80,9
Kosonsoy	355,4	112,6
Namangan t	893,1	111,8
Norin	371,3	107,2
Pop	348,8	106,8
To'raqo'rg'on	926,7	134,1
Uychi	832,7	108,5
Uchqo'rg'on	818,5	165,6
Chortoq	118,3	111,3
Chust	290,6	114,8
Yangiqo'rg'on	138,0	123,5

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,6 % ulushini), To'raqo'rg'on (10,2 %), Namangan (9,8 %), Uchqo'rg'on (9,0 %), Uychi tumani (9,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,3 %), Mingbuloq (1,5 %), Yangiqo'rg'on (1,5 %), Chust (3,2 %) Pop (3,8 %) va tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ulushi, % da.



Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 47,0 %), Namangan (10,9 %), Uchqo'rg'on (9,1 %) hamda To'raqo'rg'on (8,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (6258,3 ming so'm), Namangan tumanida (5057,1 ming so'm), Uchqo'rg'on (4817,5,0 ming so'm) va To'raqo'rg'on (4155,4 ming so'm) , Uychi (3965,1 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2875,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 2057,0 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 4340,4 ming so'mni, Namangan tumanida 3546,6 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 3063,2 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 2157,7 ming so'mni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari hajmlari.


	Sanoat ishlab chiqarish (ming so'mda)	Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (ming so'mda)
Viloyat jami	3268,4	2057,0
Namangan shahar	6258,3	4340,4
Mingbuloq	996,3	382,1
Kosonsoy	1723,9	1189,6
Namangan t	5057,1	3546,6
Norin	2294,7	718,6
Pop	1607,3	637,4
To'raqo'rg'on	4155,4	2157,7
Uychi	3965,1	1805,3
Uchqo'rg'on	4817,5	3063,2
Chortoq	601,8	561,0
Chust	1108,1	1086,2
Yangiqo'rg'on	642,1	396,5

2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol tovarlarining o'sishi, 2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da.

Sanoat ishlab chiqarish



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 6717,3 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 73,9 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Uychi (95,5 %) Norin (92,4 %), va Namangan (87,1%) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (38,4 %), Pop (52,4 %) va Chust (62,5 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da.



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5486 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2341 tasi Namangan shahrida, 400 tasi Chust, 399 tasi Namangan, 390 tasi Uychi, 355 tasi Kosonsoy, 346 tasi To'raqo'rg'on, 248 tasi Uchqo'rg'on, 238 tasi Norin, 221 tasi Yangiqo'rg'on, 219 tasi Chortoq, 211 tasi Pop va 118 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2020 yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni (birlikda)



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 1446 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 54,4 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Uychi tumanlariga to'g'ri keladi.

**2020 yil 1 yanvar holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida 209,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi buyicha chora– tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarish.



■ Korxonalar soni

■ Ishlab chiqarish hajmi

■ Loyihalar soni

■ Yaratigan ish o'rinlari soni

■ Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2018 yilning yanvar – dekabr oylarida dasturga tushgan 20 korxonalar tomonidan 41 ta loyiha asosida 226,0 mlrd.so'mlik import o'rnini bosuvchi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2019 yilning shu davrida 10 ta korxonalar tomonidan 20 ta loyiha bo'yicha 209,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Shuningdek, dastur doirasida ishlab chiqarilgan mahalliy mahsulotlarni export hajmi 2018 yilning yanvar – dekabr oylarida 93,42 ming. AQSh dollarini, 2019 yilda 800,0 ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasining Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(71) 230-84-80